

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
B.I. Isroilov, B.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH HOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT VA NAZORAT TIZIMINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	172
Xusanova Malohat Mingnorovna	



SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT VA NAZORAT TIZIMINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Xusanova Malohat Mingnorovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti v.b. dotsenti

ORCID: 0009-0000-6042-8584

Annotatsiya: Ilmiy maqolada sanoat korxonalarida ichki audit va nazorat tizimining boshqaruv samaradorligiga ta'siri nazariy-amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot COSO-2013 integratsiyalashgan asoslari, IIA xalqaro kasbiy amaliyot tuzilmasi va ISO 31000:2018 xavf boshqaruvi standartlariga tayanib olib borildi. Muallif o'n beshta ochiq kirishli xalqaro ilmiy manbani tizimli ravishda umumlashtirdi va ichki audit samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy institutsional, kasbiy hamda operatsion omillarni tasnifladi. Olingan dalillar yuqori rahbariyat qo'llab-quvvatlashi, auditor mustaqilligi, kasbiy malaka darajasi, uch mudofaa liniyasi modeli va raqamli audit vositalarining boshqaruv samaradorligiga ijobiy ta'sirini empirik jihatdan tasdiqladi. Muallif sanoat korxonalarida uchun strategik qarorlarni xavf yo'naltirilgan asosga o'tkazish va xalqaro amaliyot bilan muvofiqlashtirish yuzasidan amaliy takliflarni ilgari surdi.

Kalit so'zlar: ichki audit, ichki nazorat tizimi, sanoat korxonasi, boshqaruv samaradorligi, COSO, IIA, ISO 31000, uch mudofaa liniyasi modeli, xavf boshqaruvi, raqamli audit.

Аннотация: В научной статье было изучено влияние системы внутреннего аудита и контроля на эффективность управления промышленными предприятиями в теоретико-практическом аспекте. Исследование опиралось на интегрированные основы COSO-2013, международную структуру профессиональной практики IIA и стандарт управления рисками ISO 31000:2018. Автор систематически обобщил пятнадцать международных научных источников открытого доступа и классифицировал основные институциональные, профессиональные и операционные факторы, влияющие на эффективность внутреннего аудита. Полученные доказательства эмпирически подтвердили положительное воздействие поддержки высшего руководства, независимости аудитора, уровня профессиональной компетентности, модели трёх линий защиты и цифровых аудиторских инструментов на управленческую результативность. Автор выдвинул практические рекомендации для промышленных предприятий по переводу стратегических решений на риск-ориентированную основу и гармонизации с международной практикой.

Ключевые слова: внутренний аудит, система внутреннего контроля, промышленное предприятие, эффективность управления, COSO, IIA, ISO 31000, модель трёх линий защиты, управление рисками, цифровой аудит.

Abstract: The scientific article examined the influence of the internal audit and control system on management effectiveness in industrial enterprises from a theoretical and practical perspective. The study drew on the COSO 2013 Integrated Framework, the IIA International Professional Practices Framework, and the ISO 31000:2018 risk management standard. The author systematically synthesized fifteen open-access international scientific sources and classified the principal institutional, professional, and operational factors that shape internal audit effectiveness. Empirical evidence confirmed the positive impact of senior management support, auditor independence, professional competence, the three lines of defense model, and digital audit tools on managerial performance. The author formulated practical recommendations for industrial enterprises regarding the transition of strategic decisions to a risk-oriented basis and harmonization with international practice.

Keywords: internal audit, internal control system, industrial enterprise, management effectiveness, COSO, IIA, ISO 31000, three lines of defense model, risk management, digital audit.

KIRISH

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishining texnologik murakkablashuvi, qiymat zanjirlarining transmilliy xususiyat kasb etishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji korxonada boshqaruvida sifat jihatdan yangi mezonlarni shakllantirdi. Ichki audit va nazorat tizimi zamonaviy boshqaruv nazariyasida strategik qaror qabul qilish sifatini oshiruvchi, operatsion jarayonlar samaradorligini ta'minlovchi va xavf-xatarlarni tizimli asosda boshqaruvchi institut darajasiga ko'tarildi [1]. Treadway komissiyasi homiylar qo'mitasi (COSO) tomonidan 2013-yilda qayta ishlangan "Internal Control - Integrated Framework" hujjati ichki nazoratning besh asosiy komponenti — nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat chora-tadbirlari, axborot-kommunikatsiya



hamda monitoring — birgalikda sanoat korxonasi boshqaruv modelining ajralmas institutsional asosi sifatida tan olinishi lozimligini qayd etdi [1].

Sanoat korxonalari faoliyatida ichki audit funksiyasining ahamiyati bosqichma-bosqich o'sib borayotgan obyektiv tendensiya hisoblanadi, chunki aynan mazkur funksiya menejment strategiyasining amaliyotga tatbiqi, resurslardan ratsional foydalanish hamda huquqiy-me'yoriy talablarga muvofiqlik sohalarida tizimli ishonch darajasini ta'minlaydi [2]. Ichki Auditorlar Institutining (IIA) "International Professional Practices Framework" hujjati xalqaro kasbiy standartlar, axloq kodeksi va amaliy ko'rsatmalar majmuasini ichki auditorning professional faoliyatini ta'minlovchi poydevor sifatida kodifikatsiya qildi [2].

Sanoat korxonasi boshqaruv samaradorligi tushunchasi nafaqat moliyaviy natijadorlik ko'rsatkichlari, balki operatsion barqarorlik, me'yoriy muvofiqlik va strategik maqsadlarga erishish darajasini qamrab oluvchi integral kategoriyaga aylandi [3]. ISO 31000:2018 xavf boshqaruvi xalqaro standarti mazkur o'Ichamlarni integratsiyalashgan risk-menejment tsikli orqali birlashtirishga imkon beradi [3]. Ichki audit funksiyasi ko'rsatilgan uchala yo'nalishda obyektiv ishonch va kengashli-konsalting xizmatini ta'minlovchi universal vosita sifatida namoyon bo'ladi; aynan ushbu integrativ xususiyat uning boshqaruv samaradorligiga ta'sir mexanizmini ilmiy jihatdan o'rganishni zamonaviy ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi [4].

Ilmiy maqolaning maqsadi — sanoat korxonalarida ichki audit va nazorat tizimining boshqaruv samaradorligiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslash, empirik adabiyotlar majmuasi orqali ta'sir omillarini tasniflash va amaliy takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslangan tarzda belgilashdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilarda ifodalandi: xalqaro me'yoriy-uslubiy bazaning zamonaviy holatini umumlashtirish, o'n besh manbadan iborat empirik tahlil asosida ichki audit samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifini shakllantirish, boshqaruv samaradorligi bilan sabab-oqibat bog'liqligining uch darajali konseptual modelini taqdim etish, sanoat sektori korxonalarida uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit samaradorligi muammosining zamonaviy ilmiy talqini institutsional, kasbiy va empirik yo'nalishlarni qamrab oluvchi ko'p qirrali nazariy asosga tayanadi. Lenz va Hahn 2015-yilda "Managerial Auditing Journal" sahifalarida e'lon qilgan umumlashtiruvchi sharhda ichki audit samaradorligini makro va mikro omillarga bo'lib o'rganish kerakligi ilmiy jihatdan asoslandi [4]. Makro darajada tashkiliy xususiyatlar, ichki audit resurslari, audit jarayonlari va professional munosabatlar, mikro darajada esa qonuniy muvofiqlik majburiyatlari, kasbiy uyushmalar normativ ta'siri va ilg'or tajribalarni o'zlashtirish jarayonlari ajratildi [4]. Mualliflar "outside-in" yondashuvini, ya'ni manfaatdor tomonlar nazari orqali samaradorlikni baholashni metodologik jihatdan istiqbolli yo'nalish deb tan oldilar [4].

Alzeban va Gwilliam 2014-yilgi tadqiqotlarida Saudiya Arabistoni davlat sektori tashkilotlarida o'tkazgan kuzatuv asosida yuqori rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi ichki audit samaradorligini belgilovchi eng kuchli omil ekanligini statistik jihatdan isbotladilar [5]. Ular tomonidan ilgari surilgan xulosaga ko'ra, malakali kadrlarni yollash, uzluksiz kasbiy ta'lim ta'minoti va zarur moliyaviy-texnik resurslar ajratilishi audit xizmatining natijadorligini oshirishning bevosita drayveridir [5]. Huang va hamkasblari Tayvan korporativ ma'lumotlar bazasi asosida ichki audit guruhi hajmi operatsion va muvofiqlik yo'nalishlaridagi nazorat kamchiliklari kamayishi bilan ijobiy bog'langanini ko'rsatdilar; auditorlar malakasi esa muvofiqlik nazorati samaradorligi bilan xususiy darajada kuchli korrelyatsiyada bo'ldi [6].

Al-Okaily boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi 2024-yilda "Humanities and Social Sciences Communications" jurnalida rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari tijorat banklari misolida ichki audit amaliyotining firmalar natijadorligiga ijobiy ta'sirini statistik jihatdan tasdiqladi [7]. Ularning xulosalari yuqori rahbariyat qo'llab-quvvatlashining ichki audit funksiyalari faolligini oshirish xususidagi avvalgi ilmiy topilmalarni kuchaytirdi [7]. Pedrosa, Costa va Laureano 2022-yilda "Sustainability" jurnalida oltmish portugaliyalik ichki auditor ishtirokida o'tkazgan so'rov asosida kompyuter yordamidagi audit vositalarining firibgarlik xavfini aniqlashga hamda korporativ barqarorlikka ijobiy ta'sirini qisman eng kichik kvadratlar-strukturaviy tenglamalar (PLS-SEM) modeli orqali asosladilar [8].

Al-Busaidi va hamkasblari "Journal of Risk and Financial Management" jurnalida Omon Sultonligining sanoat kompaniyalari bo'yicha bir yuz ellik to'qqiz yaroqli so'rovnoma asosida Uch Mudofaa Liniyasi Modelining (Three Lines of Defense) korporativ boshqaruvni mustahkamlashdagi sezilarli ijobiy ta'sirini empirik jihatdan tasdiqladilar [9]. Ular operatsion boshqaruvning huquqiy va axloqiy talablarga sodiqligi, ikkinchi liniyadagi muvofiqlik va sifat funksiyalari hamda uchinchi liniyadagi mustaqil ichki audit rolining korporativ boshqaruvda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etdilar [9]. Gyasi va hamkasblari 2025-yilda Kanada ro'yxatga olingan kompaniyalar misolida ichki audit natijadorligining korporativ boshqaruv va aksiyadorlar qiymati oralig'idagi munosabatlarda vositachilik rolini o'ynashini asoslab berdilar [10].

Suleiman guruhi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan tizimli adabiyotlar sharhi 2004–2024-yillar oralig'ida 23 ta xalqaro jurnalda chop etilgan 77 ta ilmiy maqolani qamrab oldi va ichki audit funksiyasining korporativ xavf boshqaruvidagi evolyutsiyasini “muvofiqlik vazifasi — strategik sheriklik” transformatsiyasi tarzida umumlashtirdi [11]. Coskun va Gungormus empirik izlanishlari ichki audit sifati va hisob axborot tizimlari samaradorligining menejerlar tomonidan tashqi audit to'g'risidagi tasavvurlarga ijobiy ta'sirini tasdiqladi [12]. Kurbanova O'zbekistonning budget sektori doirasida ichki audit xizmatining 2021–2024-yillar oralig'ida infratuzilma bosqichiga o'tganligini hamda Jahon banki va IIA tomonidan ishlab chiqilgan “Internal Audit Capability Model” talablariga muvofiqlashib borayotganini tahlil qildi [13]. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-fevralda qabul qilingan “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-677-sonli¹ qonuni mamlakatda auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini yaratib, xalqaro audit standartlarini tan olish tartibini mustahkamladi [14]. Peroy guruhining Filippin kichik va o'rta biznes sektori (21 korxonalar) misolidagi tadqiqoti ichki nazorat va ichki audit samaradorligining biznes natijadorligi bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi [15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanish nazariy-tizimli yondashuvga tayanib amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, uning metodologik o'zagini xalqaro me'yoriy hujjatlar, empirik maqolalar va sanoat amaliyoti tajribasini umumlashtiruvchi adabiyotlar sharhi metodologiyasi tashkil etdi. Manbalar tanlovi quyidagi yo'nalishli mezonlar bo'yicha olib borildi: birinchidan, manba ochiq kirish huquqiga ega bo'lishi yoki Scopus, Web of Science indeksli bazalardan biriga qo'shilgan bo'lishi; ikkinchidan, nashr sanasi 2013-yildan keyingi davrni qamrab olishi; uchinchidan, manba mazmunan sanoat yoki korporativ kontekstda “ichki audit — ichki nazorat — boshqaruv samaradorligi” bog'liqligini tushuntiruvchi empirik yoki nazariy dalillar taqdim etishi; to'rtinchidan, havola manzili to'liq va takroriy tekshirish imkoniyatiga ega bo'lishi.

Ma'lumot yig'ish bosqichida COSO, ISO va IIA rasmiy saytlari, MDPI, Nature portali, Elsevier ScienceDirect, Emerald Insight, SSRN hamda O'zbekiston milliy huquqiy bazasi birlamchi qidiruv manbalari sifatida qo'llanildi. Umumlashtirish bosqichida har bir tanlangan manbadan ichki audit-nazorat samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar, empirik natijalar yoki metodologik yondashuvlar ajratib olindi va o'zaro taqqoslash jadvaliga kiritildi. Tahliliy bosqichda omillar tasnifi, ta'sir yo'nalishi hamda dalillarning statistik ishonchligi bo'yicha sintetik tizim shakllantirildi; ichki audit funksiyasining boshqaruv samaradorligiga ta'sir kanallarini tasvirllovchi konseptual model ishlab chiqildi. Tadqiqot etikasi ilmiy halollik tamoyillariga, manbaga aniq havola berish hamda plagiatning oldini olish talablariga qat'iy rioya qilingan holda ta'minlandi. Cheklov sifatida izlanish faqat ingliz, o'zbek va rus tillaridagi manbalar bilan chegaralangan va empirik qismda birlamchi so'rov ma'lumotlari to'planmagani ochiq qayd etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamlangan manbalar majmuasi tahlili sanoat korxonalarida ichki audit va nazorat tizimining boshqaruv samaradorligiga ta'sir mexanizmini uch darajali institutsional-kasbiy-operatsion model orqali tushuntirish imkonini yaratdi. Birinchi darajada — institutsional poydevor: COSO-2013 integratsiyalashgan asoslari besh komponent va o'n yetti tamoyil orqali ichki nazorat samaradorligining minimal standartlarini xalqaro miqyosda belgiladi [1]. Ikkinchi darajada — kasbiy standartlar: IIA xalqaro kasbiy amaliyot tuzilmasi auditor malakasi, mustaqilligi va obyektivligi bo'yicha universal mezonlar to'plamini yaratdi [2]. Uchinchi darajada — operatsion mexanizm: ISO 31000:2018 xavf boshqaruvi jarayonini korxonaning strategik maqsadlari bilan bog'lovchi metodologik tsikl shakllantirildi [3].

Omillar tahlili yuqori rahbariyat qo'llab-quvvatlashini ichki audit samaradorligining eng kuchli kuzatiladigan drayveri sifatida aniqladi. Alzeban va Gwilliam tomonidan Saudiya davlat sektorida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu omil boshqa barcha ta'sir ko'rsatuvchi omillardan statistik jihatdan ustunligini namoyish etdi [5]. Huang va hamkasblarining Tayvan ma'lumotlari audit guruhi hajmi va auditor malakasining operatsion-muvofiqlik nazorat kamchiliklari qisqarishi bilan bog'liqligini tasdiqladi [6]. Al-Okaily boshchiligidagi izlanishlar rivojlanayotgan bozor banklari misolida menejmentning audit xizmatiga strategik ishonchi firmaning umumiy natijadorligiga ta'sir qiluvchi bilvosita kanal ekanligini ochib berdi [7].

Texnologik omillar sohasida Pedrosa, Costa va Laureano 60 portugaliyalik auditor ishtirokida kompyuter yordamidagi audit vositalarining firibgarlik xavfini aniqlash va korporativ barqarorlik mezonlariga ijobiy ta'sirini PLS-SEM modeli orqali isbotladilar [8]. Olingan empirik dalillar sanoat korxonalarini uchun raqamli audit platformalari, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt elementlarini integratsiyalash boshqaruv samaradorligini oshirishning istiqbolli texnologik yo'nalishi ekanligini ko'rsatdi. Al-Busaidi va hamkasblarning

1 <https://lex.uz/docs/-5307886>



Omon sanoat kompaniyalari bo'yicha empirik tadqiqoti uch mudofaa liniyasi modelining korporativ boshqaruvni mustahkamlashga sezilarli ta'sirini tasdiqladi [9]. Gyasi guruhining Ganadagi listing kompaniyalari ma'lumotlari ichki audit natijadorligining korporativ boshqaruv va aksiyadorlar qiymati oralig'idagi mediator funksiyasini asosladi [10].

Suleiman guruhining 77 ta akademik maqolani qamrab olgan umumiy sharhi ichki audit funksiyasining o'tgan yigirma yillik davomida "majburiy muvofiqlik" modelidan "strategik sheriklik" modeliga evolyutsion o'tishini namoyish etdi [11]. Coskun va Gungormusning empirik tadqiqoti ichki audit sifati va hisob axborot tizimlari samaradorligi menejrlarning tashqi audit to'g'risidagi tasavvurlariga ijobiy ta'sirini statistik jihatdan tasdiqladi [12]. O'zbekiston milliy kontekstida Kurbanova budget tashkilotlarida ichki audit xizmatining 2021–2024-yillar oralig'ida infratuzilma bosqichiga o'tganligi hamda xalqaro "Internal Audit Capability Model" talablariga muvofiqlashuvini qayd etdi [13]. 2021-yil 25-fevralda qabul qilingan O'RQ-677-sonli qonun O'zbekiston hududida xalqaro audit standartlarini tan olish va qo'llash tartibini me'yoriy mustahkamladi [14]. Peroy va hamkasblarning Filippin kichik va o'rta biznes sektori misolidagi tadqiqoti ichki nazorat-audit kompleksining natijadorlik bilan ijobiy korrelyatsiyasini ta'minladi [15].


Umumlashtirilgan empirik dalillar majmuasi sanoat korxonalarini uchun quyidagi umumxulosani shakllantirishga asos yaratdi: ichki audit tizimi boshqaruv samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki uchta asosiy kanal orqali ta'sir ko'rsatadi — nazorat muhiti va korporativ madaniyatni mustahkamlovchi kanal, xavf boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlarini ratsionallashtiruvchi kanal hamda moliyaviy-operatsion hisobot ishonchligini ta'minlovchi kanal. Mazkur uch kanal modeli institutsional asos, kasbiy standartlar va operatsion mexanizmlar ta'siri ostida shakllanadi hamda sanoat korxonasi boshqaruv samaradorligining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Quyidagi 1-jadval ta'sir qiluvchi omillarni, ularning yo'nalishi va empirik dalillar majmuasini umumlashtiradi; 1-rasm esa ta'sir kanallarining konseptual modelini grafik jihatdan taqdim etadi (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval.

Ichki audit samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va empirik dalillar²

Ta'sir qiluvchi omil	Ta'sir yo'nalishi	Empirik dalil va kontekst
Yuqori rahbariyat qo'llab-quvvatlashi	Ijobiy, eng kuchli	Saudiya davlat sektori tashkilotlarida o'tkazilgan kuzatuv natijalari ichki audit samaradorligini belgilovchi barcha omillar orasida rahbariyat ko'magi ustuvorligini aniqladi.
Auditor mustaqilligi va obyektivligi	Ijobiy	Tayvan korporativ ma'lumotlari asosida operatsion va muvofiqlik nazorati kamchiliklari auditor tashkiliy mustaqilligi kuchli bo'lgan firmalarda kamroq qayd etildi.
Ichki audit guruhining hajmi	Ijobiy	Kengroq audit jamoasi operatsion va muvofiqlik bo'yicha nazorat samaradorligini sezilarli oshirishi empirik jihatdan tasdiqlandi.
Auditor kasbiy malakasi va ta'limi	Ijobiy	Uch yuz SME bo'yicha o'tkazilgan izlanish ichki audit sifati menejer idrokiga va tashqi audit talabiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.
Uch mudofaa liniyasi modeli (TLOD)	Ijobiy, sezilarli	Omon sanoat kompaniyalarida to'qqiz yuzdan ortiq so'rovnomasida o'tkazilgan PLS-SEM tahlili TLOD modelining korporativ boshqaruvni mustahkamlashdagi hal qiluvchi ta'sirini asosladi.
Kompyuter yordamidagi audit vositalari (CAAT)	Ijobiy	Oltmish portugaliyalik auditor ishtirokidagi so'rov CAAT vositalarining firibgarlik xavfini aniqlash va barqarorlikka ijobiy ta'siri PLS-SEM modeli bilan tasdiqlandi.
Xavf yo'naltirilgan auditorlik (ERM integratsiyasi)	Ijobiy, strategik	Yigirma uch ta jurnalda nashr etilgan 77 tadqiqotni qamragan sharh ichki auditning muvofiqlikdan strategik sheriklikka evolyutsiyasini isbotladi.
Korporativ boshqaruv va aksiyadorlar qiymati	Ijobiy, vositachi	Gana listing kompaniyalari misolida ichki audit natijadorligi korporativ boshqaruv va aksiyadorlar qiymati oralig'ida mediator vazifasini bajardi.

2 Manbalar asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.



1-rasm. Ichki audit funksiyasining boshqaruvi samaradorligiga ta'sir kanallarining konseptual modeli³

1-rasmdagi model ichki audit funksiyasining boshqaruvi samaradorligiga ta'sir mexanizmini tizimli ravishda ifodalaydi. Unda institutsional asoslar, kasbiy standartlar va operatsion mexanizmlar orqali nazorat muhiti, xavf boshqaruvi hamda hisobot kanallari shakllanishi ko'rsatilgan. Ushbu kanallar o'zaro uyg'un holda ishlashi natijasida operatsion barqarorlik, strategik muvofiqlik va moliyaviy natijadorlik kabi boshqaruvi samaradorligi ko'rsatkichlari ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan xalqaro me'yoriy baza va empirik tadqiqotlar sanoat korxonalarida ichki audit va nazorat tizimining boshqaruvi samaradorligi bilan institutsional, kasbiy hamda operatsion darajalarda chambarchas bog'lanishini tizimli tarzda tasdiqladi. COSO-2013 integratsiyalashgan asoslari, IIA xalqaro kasbiy amaliyot tuzilmasi va ISO 31000:2018 xavf boshqaruvi standarti sanoat menejmentini xalqaro amaliyot bilan muvofiqlashtirish uchun universal uslubiy poydevor sifatida xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlil ichki audit funksiyasining boshqaruvi samaradorligiga uchta asosiy kanal — nazorat muhiti, xavf boshqaruvi va hisobot kanali — orqali ta'sir o'tkazishini asosladi; mazkur model sanoat korxonalarida uchun audit-nazorat-boshqaruvi zanjirini strategik rejalashtirishga amaliy yordam beradi.

Sanoat korxonalarida amaliyotda boshqaruvi samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi amaliy yo'nalishlarni ilgari surish asosli ko'rinadi. Birinchidan, korxonada yuqori rahbariyati ichki audit xizmatini strategik sherik maqomida rasman tan olishi va audit qo'mitasining korporativ boshqaruvi organlari tarkibida mustaqil institutsional pozitsiyaga ega bo'lishini ta'minlashi maqsadga muvofiqdir [5, 9]. Ikkinchidan, auditorlarning kasbiy malakasi va xalqaro sertifikatlanish darajasini oshirish hamda uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini joriy etish bo'yicha tizimli korporativ siyosatni shakllantirish empirik dalillar bilan tasdiqlangan ustuvor yo'nalishdir [6, 12].

Uchinchidan, sanoat korxonalarida uch mudofaa liniyasi modelini tatbiq etish orqali operatsion boshqaruvi, muvofiqlik funksiyalari va mustaqil ichki audit o'rtasidagi rollarni aniq chegaralash boshqaruvi tizimining strukturaviy sifatini sezilarli yaxshilashi mumkin [9]. To'rtinchidan, kompyuter yordamidagi audit vositalari, katta ma'lumotlar tahlili va raqamli monitoring platformalarini bosqichma-bosqich joriy etish audit protseduralari tezligi va qamrovini oshirib, firibgarlik xavflarini erta aniqlashga xizmat qiladi [8, 11]. Beshinchidan, O'zbekiston sanoat korxonalarida uchun xalqaro audit standartlariga muvofiqlashtirish jarayonini chuqurlashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-677-sonli⁴ Qonun talablarini korxonada ichki normativ-huquqiy hujjatlari bilan uyg'unlashtirish hamda davlat moliyaviy nazorati bilan hamkorlikni strategik darajada

3 Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4 <https://lex.uz/docs/-5307886>



rivojlantirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi [13, 14].

Taqdim etilgan nazariy model va amaliy tavsiyalar sanoat korxonalari rahbariyati, boshqaruv sohasidagi qonun ijodkorlari va ichki auditorlar uchun ilmiy asoslangan me'yoriy-uslubiy manba sifatida foydalanishga yaroqli. Istiqboldagi tadqiqotlar O'zbekiston sanoat sektorida birlamchi empirik ma'lumotlar asosida miqdoriy ekonometrik modellar qurishga hamda ichki audit samaradorligining korxonalar rentabelligi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlariga ta'sirini miqdoriy jihatdan o'lchashga yo'naltirilishi ilmiy-amaliy qiymatni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control - Integrated Framework: Executive Summary. - Durham, NC: COSO, 2013. - URL: <https://www.coso.org/internal-control> (accessed: 24.04.2026).
2. The Institute of Internal Auditors. International Professional Practices Framework (IPPF) - Standards. - Lake Mary, FL: IIA, 2024. - URL: <https://www.theiia.org/en/standards/> (accessed: 24.04.2026).
3. International Organization for Standardization. ISO 31000:2018 - Risk management - Guidelines. - Geneva: ISO, 2018. - URL: <https://www.iso.org/standard/65694.html> (accessed: 24.04.2026).
4. Lenz R., Hahn U. A synthesis of empirical internal audit effectiveness literature pointing to new research opportunities // Managerial Auditing Journal. - 2015. - Vol. 30, No. 1. - P. 5-33. - URL: <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/MAJ-08-2014-1072/full/html> (accessed: 24.04.2026).
5. Alzeban A., Gwilliam D. Factors affecting the internal audit effectiveness: A survey of the Saudi public sector // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. - 2014. - Vol. 23, No. 2. - P. 74-86. - URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1061951814000287> (accessed: 24.04.2026).
6. Huang H.-W., Lin S., Raghunandan K. The impact of internal audit attributes on the effectiveness of internal control over operations and compliance // Journal of Contemporary Accounting & Economics. - 2018. - Vol. 14, No. 3. - P. 310-327. - URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1815566918301589> (accessed: 24.04.2026).
7. Al-Okaily M., Alqudah H., Al-Qudah A. A., Alkhwaldi A. F. The impact of internal audit system on the performance: evidence from emerging markets // Humanities and Social Sciences Communications. - 2024. - Vol. 11. - Article 1289. - URL: <https://www.nature.com/articles/s41599-024-03835-3> (accessed: 24.04.2026).
8. Pedrosa I., Costa C. J., Laureano R. M. S. Effect of computer-assisted audit tools on corporate sustainability // Sustainability. - 2022. - Vol. 14, No. 2. - Article 705. - URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/14/2/705> (accessed: 24.04.2026).
9. Al-Busaidi A., Al-Harrasi A. H., et al. The role of the internal auditor in strengthening the governance of economic organizations using the three lines of defense model // Journal of Risk and Financial Management. - 2023. - Vol. 16, No. 7. - Article 341. - URL: <https://www.mdpi.com/1911-8074/16/7/341> (accessed: 24.04.2026).
10. Gyasi A. K., et al. Corporate governance and shareholders' value: The mediating role of internal audit performance - empirical evidence from listed companies in Ghana // Journal of Risk and Financial Management. - 2025. - Vol. 18, No. 9. - Article 499. - URL: <https://www.mdpi.com/1911-8074/18/9/499> (accessed: 24.04.2026).
11. Suleiman D., et al. From compliance to strategic partnerships: The role of internal audit in enterprise risk management and opportunities for future research // Journal of Risk and Financial Management. - 2025. - Vol. 18, No. 12. - Article 707. - URL: <https://www.mdpi.com/1911-8074/18/12/707> (accessed: 24.04.2026).
12. Coskun A., Gungormus A. H. The impacts of internal audit quality and accounting information systems effectiveness on SME manager's perceptions of external audits // Journal of Management, Economics, and Industrial Organization. - 2024. - Vol. 8, No. 3. - P. 51-72. - URL: <https://doi.org/10.31039/jomeino.2024.834> (accessed: 24.04.2026).
13. Kurbanova K. Directions for organizing internal audit and measures of state financial control in the budget organizations of the Republic of Uzbekistan // World Journal of Advanced Research and Reviews. - 2024. - Vol. 22, No. 3. - P. 276-284. - URL: <https://doi.org/10.30574/wjarr.2024.22.3.1704> (accessed: 24.04.2026).
14. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-677-sonli Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/5702566>
15. Peroy L. E., Balating S., Bayang C. M., Glodove J., Mindog A., Lubon C. K. The effectiveness of internal control and internal audit and their influence on the business performance of small and medium enterprises. - SSRN, 2023. - URL: <https://ssrn.com/abstract=4882585> (accessed: 24.04.2026).

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100